



## LEXICAL MEANING OF THE WORD AND POSSIBILITY OF VALENCE

**Akbarali Boymirzayev**

Denov is a teacher at the Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

+998 (90) 074-84-64

@mail: aliboymirza1614@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11545025>

### ARTICLE INFO

Received: 04<sup>th</sup> June 2024

Accepted: 09<sup>th</sup> June 2024

Online: 10<sup>th</sup> June 2024

#### KEYWORDS

Word meaning, seme, valence, synonymous series, functional-semantic meanings, linguistic meaning, speech meaning.

### ABSTRACT

*This article provides ideas about the concept of words, the essence of lexemes, the general lexical meaning, the possibility of valency, and the real semantic meaning of words in speech. The general and specific meanings of the word, as well as the relationship between the functional and semantic meanings, are also presented.*

## ЛЕКСИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СЛОВА И ВОЗМОЖНОСТЬ ВАЛЕНТНОСТИ

**Акбарали Боймирзаев**

Денов — преподаватель Института предпринимательства и педагогики.

+998 (90) 074-84-64

@mail: aliboymirza1614@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11545025>

### ARTICLE INFO

Received: 04<sup>th</sup> June 2024

Accepted: 09<sup>th</sup> June 2024

Online: 10<sup>th</sup> June 2024

#### KEYWORDS

Значение слова, семема, валентность, синонимический ряд, функционально-семантические значения, языковое значение, речевое значение.

### ABSTRACT

*В данной статье приводятся представления о понятии слова, сущности лексем, общем лексическом значении, возможности валентности, реальном смысловом значении слов в речи. Также представлены общее и частное значения слова, а также соотношение функционального и смыслового значений.*

## SO'ZNING LEKSIK MA'NOSI VA VALENTLIK IMKONIYATI

**Akbarali Boymirzayev**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

+998 (90) 074-84-64

@mail: aliboymirza1614@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11545025>

### ARTICLE INFO

### ABSTRACT



Received: 04<sup>th</sup> June 2024

Accepted: 09<sup>th</sup> June 2024

Online: 10<sup>th</sup> June 2024

**KEYWORDS**

So'z ma'nosi, semema, valentlik, sinonimik qator, funksional-semantik ma'nolar, lisoniy ma'no, nutqiy ma'no.

*Mazkur maqolada so'z tushunchasi, leksemalar mohiyati, umumiy leksik ma'no, valentlik imkoniyati va so'zlarning nutqda voqelanadigan real semantik ma'nosi haqidagi fikrlar berilgan. So'zning umumiy va xususiy ma'nolari, shuningdek, funksional-semantik ma'nolar munosabati borasida ham zaruriy qarashlar bayon etilgan.*

So'z tushunchasi til sathlarining barchasi uchun umumiy tushuncha sanalib, uning leksik birlik sifatidagi ko'rinishi leksema tarzida atalishi ma'lum. So'z masalasida tilshunoslik ilmida bir xil (yoki umumiy) qarashning mavjud emasligi uning naqadar murakkab birlik ekanligini hamda hali o'rganilishi kerak bo'lgan tomonlari ko'pligini anglatadi.

So'z tushunchasini ta'riflashdagi qiyinchiliklar ba'zi tilshunoslarni mazkur tushunchadan voz keshish fikriga olib kelgan. Tilshunoslikdagi sotsiologik maktab asoschisi Ferdinand de Sossur so'zning til sistemasidagi o'rnini belgilashda ikkilangani ayni haqiqat. Bir tomondan, u so'zni konkret birlik sifatida baholab, til sistemasining markaziy elementi sifatida ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, so'z xususidagi ayrim mulohazalardan so'ng "tilning konkret birligini so'zdan qidirmaslik kerak" degan xulosaga keladi.[1:342]

Valentlik hodisasi so'zning ma'nosiga tayanar ekan, so'z tushunchasi konkret birlik sifatida o'z ahamiyatini yo'qotsa, mazkur hodisa o'z mohiyatini qay darajada saqlay oladi degan hadik paydo bo'lishi turgan gap. Ammo shuni unutmash lozimki, valentlik mohiyati so'zlarning bog'lanish jarayonida aks etadi. Demak, valentlik tashqi hodisa emas, balki ichki hodisa. Kontekstdan tashqarida valentlik haqida fikr yuritishning o'ziyoq xato. So'zning semantik tarkibida mavjud ma'nolar uning boshqa so'zlarga nisbatan bog'lanish-birikish imkoniyatini yuzaga chiqarsa-da, bu imkoniyat reallashmagan ko'rinishda yashaydi va faqat bog'lanishli nutq tarkibidagina so'zning real ma'nosi hamda birikuvga munosabati yaqqol aks etadi.

Shuningdek, ayrim tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan grammatik shakl valentligi masalasi ham ancha shubhali. Chunki valentlik lug'aviy birliklarning mazmuniy bog'lanishi jarayonida namoyon bo'ladi. O'zaro bog'lanayotgan so'zlar orasidagi mazmuniy munosabatning tashqi bog'lanishni yuzaga keltiradigan grammatik shakllarga ta'sirini inkor etib bo'lmaydi, ammo grammatik bog'lanish bilan valentlikni bitta hodisa deb tushunish to'g'ri emas. Masalan: *Adashmasam, o'shanda men sakkizmi-to'qqizmi yashar edim.* (I.Sulton)

Ushbu gapda *men* kishilik olmoshi I shaxs, birlik grammatik ma'nolarini ifodalagan bo'lib, gap kesimi tarkibidagi *-m* shaxs-son shakli ham I shaxs, birlik grammatik ma'nolarini yuzaga chiqargan. Gap egasi va kesimini aynan shu I shaxs, birlik grammatik ma'nolari bog'lagan. E'tibor qiling, grammatik shakllar umumiy grammatik ma'nosiga ko'ra bog'lanish hosil qilmoqda. Bu grammatik bog'lanish yoki sintaktik aloqa hisoblanadi. Valentlik esa faqat leksik ma'noga tayanadi.

Tilshunos olim Ravshanxo'ja Rasulov fikricha, so'zlarning birikishi, ular orasidagi mantiqiy aloqa dastavval til birliklarining semantik imkoniyatiga (substansial xususiyatiga) ko'ra amalga oshadi va valentlik sintaktik aloqaga qarama-qarshi qo'yiladi. Biri til birligi



sifatida gavdalansa, biri nutq birligi sifatida namoyon bo'ladigan ushbu hodisalar go'yo tenglashtirilganday ko'rinadi. Valentlikning ichki imkoniyat, mohiyat sifatida, sintaktik aloqaning realizatsiya, hodisa sifatida aks etishi ko'pgina tushunmovchiliklarga chek qo'yadi.[2:16]

So'z mohiyatan qandaydir umumiy ma'nolarni ifodalash bilan birga funksional-semantik ma'nolarni ham ifodalashi ko'pgina tadqiqotlarda isbotlangan. Aksariyat hollarda so'zning funksional-semantik ma'nolari so'zning asosiy ma'nosiga tayangan bo'ladi. Ayrim holatlar ham borki, so'zning asosiy ma'nosiga bog'liq bo'lmagan, ya'ni voqelikka mos kelmaydigan uslubiy ma'nolar yuzaga keladi. Ayni shu holat so'z ma'nosining alohida birlik sifatida emas, nutq yoki kontekstning bir bo'lagi sifatida o'rganilishi lozimligini ko'rsatadi.

Aksariyat polisemiyalarda ko'chma ma'noning bosh ma'noga tayanishi ma'lum. O'xshashlik va bog'liqlik so'z ma'nosining ko'chishiga asos bo'ladi. Ammo so'z ma'nosining ko'chishi sifatida qaraladigan ko'pgina birliklarning ma'nosi bosh so'z ma'nosidan yiroqlashadi yoki uziladi va yangi leksema sifatida qaraladi. Bu ko'pincha turkumlar farqi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, *ko'k* sifatining ko'chma ma'nosi sifatida qaraladigan metonimik *osmon* ma'nosi ot turkumiga mansub birlikka o'tgani sabab orada bir qadar uzoqlashish mavjuddek ko'rinadi.

Ko'pgina manbalarda *metanimiya* deb olinadigan ushbu birlik aslida *osmon, samo, falak, gardun* kabi sinonimik qatorning teng huquqli a'zosi hisoblanadi.[3:159] Chunki qadimgi turklar tilida ham *ko'k, ko'k tangri (osmon tangrisi)* kabi birliklar qo'llanilgan. Demak, *ko'k* leksemasining ushbu ma'noda gavdalanishi bugungi til hodisasi emas. Mazkur leksema tarixan shakllangan (aniqroq aytganda, tarixda metanimiyaga uchragan) va bugungi kunda ot turkumiga mansub mustaqil birlik hisoblanishi kerak.

Boshqa so'zlar bilan bog'lanishida mazkur leksema ma'nosida biroz o'zgachalik mavjud bo'ladi. Ya'ni ushbu leksemaning tarixiy shakllanishi belgi asosida yuzaga kelgani sababli unda qisman belgiga egalik saqlanadi va ko'pincha quyosh yoritib turgan paytdagi osmonni ko'k deyish mantiqqa muvofiq keladi. Quyidagi misollarda uning aynan o'z o'rnida qo'llanganini sezish qiyin emas: 1. *Martning oxirgi kunlari. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yga solyapti.* (Abdulla Qahhor) 2. *Go'yo Avliyoning tegrasini qurshab turgan nur erta-indin bir hukmi ilohiy ila bu hafif vujudni ko'klarga uchirib olib ketadiganday ko'rinar edi.* (I. Sulton)

Agar qaysidir o'rinda *Ko'kda yulduzlar porladi* shaklida gap tuzilsa, leksemaning semantik tarkibida yashirin saqlanadigan funksional-semantik ma'no so'zning noo'rin qo'llanganini namoyon qiladi. Buni *Osmonda yulduzlar porladi* shaklida ifodalash to'g'ri bo'ladi.

*Ayyor, mug'ombir, hiylagar* sinonimik qator a'zolari orasida *shayton, tulki* singari leksemalarning teng huquqli bo'lib kelishi ham sinonimlar masalasida bir qator tadqiqotlab o'rinlar mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur leksemalar *ayyor* ma'nosida qo'llanilsa ham, kontekstdan tashqarida o'zining asl ma'nosini gavdalantiradi. Demak, ko'chma ma'nodagi bog'lanish imkoniyati sinonimik qatorning to'la huquqli a'zolaridan biroz kamroq. Ya'ni, asosan, oddiy so'zlashuv uslubi bilan cheklanadi.



Mazkur leksemalardagi *ayyor* semasi keyingi, funksional ma'noning ta'sirida yuzaga kelgan. Qolgan so'zlar esa o'zining asosiy ma'nolari bilan sinonimik munosabat tashkil etadi.[4: 5]

Misollardan ko'rinadiki, sinonimik qator a'zolarining bog'lanish imkoniyati har bir birlikda alohida ko'rinishda yuz beradi. Ayrim ma'nodosh so'zning boshqasi bilan erkin almashina olishi, ko'p jihatdan, uning asosiy ma'nosiga bog'liq bo'ladi. Yuqoridagi kabi boshqa tushunchaga qiyos asosida yuzaga kelgan sinonimlarning dominant so'z bilan teng munosabatli vazifa bajarishi esa, albatta, bir qadar cheklangan bo'ladi.

So'z ma'nosining izohlanishi haqida gap ketganda, ta'kidlash kerakki, leksemaning alohida birlik sifatida izohlanishi hamda boshqa birliklar (asosan, ma'nodoshlari) bilan qiyoslanishi uning to'la mohiyatini ochib bermaydi. Ma'lumki, izohli lug'atlarda leksemaga shu yo'sinda sharh beriladi va ko'pincha so'z ma'nosini ochish uchun qaysidir badiiy asardan olingan umumiy jumalardan foydalaniladi yoki so'z to'la izohlanmay, izoh sifatida faqat ma'nodosh so'zlar berilishi kuzatiladi.

Leksema sharhlanar ekan, semema tarkibidagi komponentlar yaqqolroq tavsiflanishi va aynan tavsiflanayotgan nuqtaga mos jumlar misol tariqasida tanlanishi lozim bo'ladi. Ma'nodosh leksemalar izohida esa leksik ma'no tarkibidagi integral va differensial semalar aniq ko'rsatilishi muhim.

Generativ semantika nuqtayi nazaridan qaraganda, lug'aviy birlik o'z realligini faqat kontekstda, gap tarkibida namoyon qiladi. Shunday ekan, lug'aviy birlik ma'nosi alohida, mustaqil hodisa emas, balki gap ma'nosining bo'lagi, komponenti sifatida o'rganilmog'i lozim.[5: 67]

So'z ma'nosining izohlanishi uning bor imkoniyatini ochib bermaydi, bu faqat birtomonlama izoh bo'lib qoladi. So'zning kontekstda reallashadigan ma'nosi esa u haqda mukammalroq xulosa chiqarishga turtki bo'ladi. Demak, so'z ma'nosining asl mohiyati boshqa so'zlar bilan bog'lanishi jarayonida ochiladi. Bog'lanishlar jarayonida so'zning leksik-semantik tarkibi o'zgaruvchan xarakterga ega bo'ladi. Chunki sistema tabiati shunday: birliklar sistema tarkibida o'ziga xos tomonga ega bo'ladi.

So'z valentligi tadqiqi shuni ko'rsatadiki, umumiy ma'noda, so'zning ikki xil ma'nosi farqlanishi lozim bo'ladi:

1. Lisoniy ma'no.
2. Nutqiy ma'no.

Lisoniy ma'nolar so'zning leksik tabiatida o'rinlashgan va leksik-semantik tarkibida mavjud ma'nolar sanalsa, nutqiy ma'nolar esa so'zning so'z birikmasi, gap, matn kabi sintaktik-semantik birliklar tarkibida voqelanadigan konkret ma'nosi sanaladi.

So'zlarning lisoniy ma'nolari kishilarning til xotirasida umumiy ma'nolar ko'rinishida saqlanadi va ular ayni shu ma'nosiga mos ravishda mazmunan mos keladigan boshqa birlik (so'z) bilan birikadi. Shu o'rinda savol tug'ilishi tayin: so'z ma'nosiga muvofiq boshqa so'z bilan bog'lansa, nutqiy ma'nolar qay tariqa yuzaga chiqadi? Insonning lisoniy xotirasida faqat lug'aviy birliklar emas, sodda va murakkab tarzda nutqiy qoliqlar (bog'lanishli birliklar) ham mavjud bo'ladi va bu nutqiy qoliqlar til boyligining ko'pgina bog'lanishli birliklarini ham o'zida saqlaydi. Nutqiy jarayonda ana shu imkoniyat ham yuzaga chiqadi. Yana ayrim nutqiy ma'nolar esa so'zlovchi tomonidan ijod qilinadi.



Soʻzning asl maʼnosiga qaralganda, baʼzan biz kutgan maʼno kelib chiqmaydi. *Lutfan* soʻzi atrofidagi bahslar koʻp yillardan buyon davom etadi. Ammo lingvistlar bu borada tilning ijtimoiyligini unutilib qoʻyishadi. Kelib chiqadiki, taklifnomalarda *sizni lutfan taklif etamiz* sintaktik qolipi koʻpchilik tadqiqotchilar aytganiday “*siz bunga arzimaysiz, ammo biz sizga lutf, marhamat koʻrsatib taklif etamiz*” tarzida emas, “*sizni dildan taklif etamiz*” tarzida ifodalanishi maqsadga muvofiq. Chunki til ijodkori boʻlgan insonlar shunday qabul qilib boʻlgan. Tadqiqotchi mana shu tomonlarni hisobga olsagina, soʻz maʼnolarining ayni tilimizdagi real koʻrinishi gavgavlanadi.

Xulosa oʻrnida aytish joizki, leksik maʼno bilan bogʻliq lugʻatlar vaqti-vaqti bilan oʻzgartirilib, yangilanib borilishi lozim. Til ijtimoiy hodisa sanalgani bois leksik qatlamdagi birliklarning maʼnosidagi torayish (*osh*), kengayish (*otlanmoq, boshlamoq*), koʻchish (*koʻk, qalin, yupqa, quloq*), teskarilanish (*balo, dahshat*) va siljishlar (*lutfan, fuqaro*) soʻz maʼnosi haqidagi qarashlar nisbiy ekanligini hamda bunga nutqiy jarayonning qay darajada katta taʼsir oʻtkazishi mumkinligini koʻrsatib turadi.

Davr oʻtib borgani sari leksik birlik semantikasidagi oʻzgarish maʼlum darajada oʻzgarishi mumkin. Bu aynan nutqiy maʼno taʼsirida yuz beradi. Nutqiy maʼno vaqti kelib leksik birlik semantikasida oʻrinlashadigan asosiy maʼnoga ham aylanishi mumkin. Demak, leksik maʼno barqaror emas ekan, nutqiy maʼno xususiyatlarini chuqurroq oʻrganish tilshunoslik oldidagi asosiy vazifalardan boʻlib qoladi.

### References:

1. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. – М., 1933.
2. Rasulov R. Oʻzbek tilidagi holat feʼllari va ularning obligator valentliklari. –Toshkent, 1989.
3. Hojiyev A. Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati. – T.: Oʻqituvchi, 1974.
4. Shamsiddinov H. Soʻzlar funksional-semantik sinonimlarining shakily va maʼnoviy tabiati. – Toshkent: Universitet, 2008.
5. Qoʻchqortoyev I. Soʻz maʼnosi va uning valentligi. – T.: Fan, 1977.